

IKROMJON ORZIQULOV

BOBO BILAN NABIRA

(she'rlar)



Toshkent
“Muharrir nashriyoti”
2013

UO'K: 821.513.11

KBK 84(50')7

O-45

935.2408

Orziqulov, Ikromjon

O-45 Bobo bilan nabira: she'rlar / Ikromjon Orziqulov; –
Toshkent: «Muharrir nashriyoti», 2013. 72 b.

ISBN 978-9943-25-393-3

Mazkur kitob bolalar uchun yozilgan sodda va ravon she'rlardan tuzilgan. Ulardagi samimiy she'rlar bola ko'ngli beg'uborliklari bilan hamohang ruhda jarang topgan. Muallifning Siz aziz bolajonlarga atagan ushbu tuhfasini ko'nglingizga xush yoqadi, degan umiddamiz.

UO'K: 821.513.11

KBK 84(50')7

Taqrizchi:

Dilshod Rajab,

filologiya fanlari nomzodi

10 41619
091

2014/1 A 74	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
----------------	--

ISBN 978-9943-25-393-3

© «Muharrir nashriyoti»,
Toshkent, 2013.

Ushbu kitobni volidayi muhtaramam Mastura aya xotirasiga bag'ishlayman



TINCHLIK BO‘LSIN

Qariyalarni
Qadrla doim,
Urushning nomi
O‘chsin, iloyim.

Bobom der har on
Tinch bo‘lsin osmon,
Bo‘lmasin aslo
Hech kim nogiron.

Bobom yurt uchun
Urushga kirgan,
Jang qilib bitta
Oyog‘in bergan.

Baxtimiz uchun,
Taxtimiz uchun,
Qancha insonlar
Kurashgan ekan.

Bobom der har on
Tinch bo‘lsin osmon,
Bo‘lmasin aslo
Hech kim nogiron.

05.06.2013

MEHMION-MEZBON

Yulduz ko'kda
Porlayapti,
O'ynaylik deb
Chorlayapti.

Erta-indin
Uchamiz-da,
Osmonlarni
Quchamiz-da.

O'zbeklardan
Salom deymiz,
Birga palov
Qilib yeymiz.

Chaqiramiz
Mehmonlikka,
Rozimiz biz
Mezbonlikka.

29.04.2013



YOLG'ON YOMON

Yolg'on yomon,
Yolg'on yomon,
So'ng uyalib
Qolgan yomon.

O'rtoqlarni
Xafa qilib,
O'zin zo'r ham
Dono bilib.

Yolg'onlarni
Aytgan yomon,
So'ng uyalib
Qolgan yomon.

Yolg'onlardan
Bo'lg'in yiroq,
Agar bo'lsang
Menga o'rtoq.

28.05.2013



OGOY YASHA

Olim bo'lna
Odam bo'lgln,
Doim baxtli
Qadam bo'lgln.

Hayotingda
Baxtli yasha,
Ziyrak bo'lib
Qadam tashla.

Turli-tuman
Odamlar bor,
Yaxshi-yomon
Qadamlar bor.

Shuni o'ylab
Ogoh yasha,
Chin do'sting-la
Qadam tashla.

01.05.2013



VATAN

Vatan – bog'imiz,
Gul har yog'imiz.
Mehribon zamin,
Zar tuprog'imiz.

Ko'zga to'tiyo,
Qalbda muddao.
Erkin bu zamin
Bizniki dunyo.

Vatan onadir,
Ham parvonadir.
Do'stu birodar,
Ham dugonadir.

16.03.2013



DEHQON

Dehqon hurmatda doim,
Nur sochar oftob oyim.
Peshona teri bilan
O'zing Vatanda boyim.

Mehnat doim odati,
Qadoq qo'lli surati.
Doim qo'llaydi yonda
Do'st o'rtog'i, ulfati.

Udir yurtimning sha'ni,
Mehnatda qaynar qoni.
Mustaqil yurt kuchiga
Kuch qo'shadi xirmoni.

ONA QISHLOG'IM

Mening tuprog'im,
Ona qishlog'im.
Qir, dala, tog'im,
Yashnagan bog'im.

Men senga o'g'il,
Qo'lingni bergil.
Baxting shu, bilgil,
Qishloqqa kelgil.

Shahardek bo'lgan,
Qishloqni ko'rgan,
Har bitta mehmon
Der mangu chaman.

OTA-ONANG

Ota-onang
Sening baxting,
Sen podshoh,
Ular taxting.

Biri quyosh,
Biri oying,
Murod tomon
Yetar joying.

Duo qilsin,
Boshga ko'tar,
Duo olgan
Baxtga yetar.

Ota-onang
Hurmatin qil,
Odamiylik
Shundadir, bil.

28.05.2013



MAKTABIM

Maktab, men sevgan joyim,
Yaxshi o'qi, der oyim.
Ustozlarim mehribon,
Muruvvatlidir doim.

Maktabimga shoshaman,
Daryodayin toshaman.
Ilm olib, hayotning
Tog'laridan oshaman.

Maktabim, sensan ona,
O'zing bizga parvona.
Ilmli insonlarga
Quchoq ochar zamona.

20.05.2013

FAROVON TURMUSH

Farovon turmush —
Ko'p mehnat qilish.
Halol mehnatni
Qoida bilish.

Hammaga bor ish,
Yo'q bekor yurish.
Ilmu hunarda
Farovon turmush.

16.05.2013

BOBOM

Bobom dedi:
Kel, bolam,
Qilaylik
“Achom-achom”.

Peshonangni
Silayin,
Senga omad
Tilayin.

Ko‘p qatori
O‘ynab, o‘s,
Yoningda ko‘p
Bo‘lsin do‘st.

Yaxshi bo‘l sen,
Odam bo‘l,
Kurashlarda
Bardam bo‘l.

16.05.2013



OBODLIK

Obod turmush —
Olg'a yurish,
Zamonaviy
Uylar qurish.

Yangi uylar,
Unda to'ylar.
Zo'r hofizlar
Qo'shiq kuylar.

Turmush obod,
Hamma ham shod.
Yaxshilarga
Bu saodat.

01.04.2013

MEN VA OYNA

Men oynaga
Qarasam
U ham menga
Qaraydi.

Asta sochim
Tarasam
U ham sochin
Taraydi.

Oynadagi
Do'stimdir,
Mening aksim,
O'zimdir.

10.05.2013

SPORTCHIMIZ, SOG‘LOM AVLODMIZ

(qatralar)

Bir, ikki, uch,
Sport bizga kuch,
Sog‘ yurishdir burch,
Sakrab, irg‘ib, uch.
Sog‘lomdir avlod,
Go‘zal bu hayot.

Turnikka osil,
Maqsading hosil,
Mashq qil muttasil,
Polvonsan asil.
Sog‘lomdir avlod,
Go‘zal bu hayot.

Mayli tosh ko‘tar,
Muskuling o‘sar,
Og‘riqlar ketar,
Maqsadga yetar.
Sog‘lomdir avlod,
Go‘zal bu hayot.

Qani, tez yugur,
Mashqqa ulgur,
Sinmasin g‘urur,
Qilasan huzur.
Sog‘lomdir avlod,
Go‘zal bu hayot.

Bel ushlab kurash,
Yelkani tirash,
Mehrni ulash,
Bir-biring suyash.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzal bu hayot.

Balandga sakra,
Ishonchni oqla,
Dilingni pokla,
Doʻstni soʻroqla.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzal bu hayot.

Yadro uloqtir,
Boʻlasan botir,
Oʻzgarish sodir —
Sensan bahodir.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzal bu hayot.

Sport – goʻzallik,
Chiroyli borlik,
Sakra chiroylik,
Yaxshidir sogʻlik.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzal bu hayot.

Balandlikdan osh,
Chiqmasdan quyosh,
Bajar, top bardosh,
Asablar yuvosh.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzal bu hayot.

Kamonday egil,
Doimo mashq qil,
Bir oyoqlab tur,
Ochil misli gul.
Sog'lomdir avlod,
Go'zal bu hayot.

Tongda boqqa chiq,
Yelkada sochiq,
Havo sof, ochiq,
Turmaydi sanchiq.
Sog'lomdir avlod,
Go'zal bu hayot.

Uzoqqa sakra,
O'zing ardoqla,
Parashyut bog'la,
Bir bo'l o'rtoq-la
Sog'lomdir avlod,
Go'zal bu hayot.

Boks tush mayli,
Sog'lom, chiroyli,
Qo'l-oyoq xayri,
Boks tufayli.
Sog'lomdir avlod,
Go'zal bu hayot.

Futbol ham o'yna,
Yugur, o's, quvna,
Gol ur yo poyla,
Kengayar siyna.
Sog'lomdir avlod,
Go'zal bu hayot.

Sportni sevgan,
Bo'ladi mergan,
Qanotin kergan,
Dunyo tanigan.
Sog'lomdir avlod,
Go'zal bu hayot.

O'ynagin shaxmat,
Bu yaxshi odat,
Ham sabr, toqat,
Yo shoh yoki mot.
Sog'lomdir avlod,
Go'zaldir hayot.

Basketbol o'yna,
Sakra, tosh qayna,
Qilgin tantana,
To'p to'rda mana.
Sog'lomdir avlod,
Go'zaldir hayot.

Voleybol yaxshi,
Sportning naqshi,
Qaynaydi qoning,
Baxtli har oning.
Sog'lomdir avlod,
Go'zaldir hayot.

Suvda suzib, o'z,
Yalqovlikni to's,
Suvdir bizga do'st,
Suzib suvni kes.
Sog'lomdir avlod,
Go'zaldir hayot.

Sen uzoq sakra,
Ishonchni oqla,
Dilingni pokla,
Sportni yoqla.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzaldir hayot.

Yurt nomin koʻtar,
Umr tez oʻtar,
Mashq qilganlar,
Niyatga yetar.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzaldir hayot.

Oltin medal ol,
Kurashgin, halol,
Tildan tomsin bol,
Shunday yashab qol.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzaldir hayot.

Sport tanitar,
Bayroqni koʻtar,
Oʻziga beklar,
Doimo yutar.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzaldir hayot.

Yurt – Oʻzbekiston,
Sport zoʻr imkon,
Gʻalaba tomon,
Bobong Ikromjon.
Sogʻlomdir avlod,
Goʻzaldir hayot.

OYMOMO

Oymomojon, oymomo,
Sevimlisiz, hoy momo.
Bizga juda yoqasiz,
Siz chiroyga boy momo.

Sizni rosa sog'indik,
Qadringizni xo'p bildik.
Siz tomon qarab turib,
Bizlar chindan sog'indik.

Sizni chorlar Oydinoy,
U ham sizday xushchiroy.
Shirin so'zlik, xush odob,
Egizaksiz hoynahoy.

22..05.2013

OLMA OQADI

Suvda olma
Oqadi,
Menga juda
Yoqadi.

Suvda qalqib
Oqishi,
Yuraklarga
Yoqishi.

Mendan o'zib
Chopishi,
To'liqlardan
Shoshishi.

BOBO BILAN NABIRA

(she'riy hikoya)

Bobo bilan nabira
Uy yig'ishtirdi bir kun.
Hashaklarning ichidan
Topdi ilon tuxumin.

Bobob aytdi: tuxumga
Tegish kerakmas, bolam.
G'o'rlik qilib nabira
Tuxumni oldi oqshom.

Ikkovlon ertalabda
Choy ichib o'tiribdi.
Ko'zlarining oldida
Shu voqea bo'libdi:

Charx urib bitta ilon
Ustunga chirmashibdi.
Tepadagi chorxakka
Borishga u shoshibdi.

U yerda sut quyilgan
Idish osilgan ekan.
Ilon kosaga qarab
Zahar sochibdi sekin.

So'ng orqaga qarab
O'rmalabdi past tomon.
Yo'qolibdi bir zumda
Harakat qilib chaqqon.

Bobo debdi bolaga:
Ilon tuxumin olibsan.
Endi qasos olmoqchi,
Sen haloga qolibsan.

Tez bo'l, uning tuxumin
O'z joyiga qo'yib qayt.
Ilon bo'lsa, bo'lmasa,
Sen, yaxshisi, uzr ayt.

Xo'p debdi-yu nabira
Qo'yibdi o'z joyiga.
Qaytib kelib xotirjam
Qo'l uzatsa choyiga.

Ilon shoshiib, vishillab,
Intilibdi sut tomon.
Ustunga ham chiqibdi,
Chirmashib oppa-oson.

Chorxakning idish turgan
Tomondagi ipini
Tishlab, uzib tashlabdi,
To'kib uning sutini.

Ilon ortiga qaytib
Tezda ko'zdan yo'qoldi.
Bobo bilan nabira
Rosa hayratda qoldi.

Ba'zi inson qilolmas
Ishni ilon bajarar.
Yaxshi bilan yomonni
Ajab, farqiga borar.

Tabiatning ishi bu,
Hammaga bo'lar ibrat.
Bu ishni bajartirgan
Ilohiy buyuk qudrat.

Yaxshilik va yomonlik
Shunday yakun topadi.
Yaxshilik natijasi
Hammamizga yoqadi.

31.05.2013

OLMA O'G'RILARI

Bola olmaga chiqib
Uzib, yeya boshlabdi.
Bog'bon kelib qarasa
Yerga to'kib tashlabdi.

Olmaning tepasida
Bir bolani ko'ribdi.
Achchiqlanib, na iloj,
Kimligini so'ribdi.

Sen o'g'ri bolani
Adabingni berayin.
Otangga aytib seni
Ahvolingni ko'rayin.

Tutoqibdi-da bog'bon,
– Otam aslo urishmas.
Debdi-da o'g'ri bola,
– O'g'rilik qilma demas.

Otam olma uzyapti,
Daraxtning tepasida.
Menga tanbeh berolmas,
Otam sherik aslida.

Bog‘bon asta qarasa,
Ko‘zlarin jovdiratib.
Olmaning tepasida
Bir odam turar qotib.

Bog‘bon dehdi, aslida,
Otang ekan aybdor.
Uni jazolash kerak,
Shudir eng to‘g‘ri qaror.

31.05.2012

CHINIQISH

Uyqudan
Erta turib,
Yuzim ham
Qo‘lim yuvib,

Rosa mashq
Qiladirman,
Quvvatga
To‘ladirman.

Cho‘milaman
Anhorda,
Saratonda
Nahorda.

**BOLALARGA JONIVORLAR,
QUSHLAR VA HAYVONLAR HAQIDA**
(turkum)

OLAQANOT

Olaqanot chug'urlab qaraydi,
Sayraydi hadiksirab.

Janjalkash o'zi juda,
Shovqin qilar behuda.
Hammaga ozor berar,
Tinch o'tirmas uyida.

Dilozor bo'lish yomon,
Kimki yomonlik tomon.
U bir kuni pand yeydi,
Do'stim, so'zimga ishon.

24.05.2013

QUYON

Quyoncha chopib ketdi,
Eshikni yopib ketdi,
Qulog'in dikkaytirib,
Polizga chopib yetdi.
Unga deb ekdim karam,
Yoniga sabzilar ham.
Quyoninga qo'shilib,
Sabzi yesammi men ham.
Bo'yim o'sib ketardi,
Hatto shiftga yetardi.
Shunday o'y surib G'ani
O'z ko'nglini ko'tardi.

25.05.2013

TURNALAR

Osmondagi turnalar
Sissiz ko'ngil tirnalar.
Biz sizlarga boqamiz
Shunda yurak quvonar.

Ko'kda qanot qoqasiz,
Bizga juda yoqasiz.
Yulduzlarni osmonga
Siz gul qilib taqasiz.

21.05.2013

TIPRATIKON

Tipratikon,
Shuncha tikon.
Ilon yeydi
Topsa imkon.

Qarab tursak,
Kaltakesak
Ovqat unga,
Shirin xo'rak.

Xavf sezsa,
Dumalaydi.
So'ng tikondan
Mo'ralaydi.

23.05.2013



LAYLAK

Oppoq laylak,
Oppoq tilak.
Bitta oyoq,
Uzun kaltak.

Yeydi ilon,
Tutar oson.
Bolasiga
Xo'p mehribon.

Sodda qushim,
Oppoq qushim.
Qordan qo'rqmas,
Zar, kumushim.

21.05.2013

TOVUQ

Tovuq tuxum
Tug'di oppoq.
Notinch bo'ldi
So'ng hammayoq.

Tanbeh herib,
Unga xo'roz
Jim bo'l, dedi,
Kel, iltimos.



XAKKALAR

Xakkillashib
Xakkalar,
Bir mushukni
Yakkalar.

Ortidan xo‘p
Quvdilar,
Do‘pposlashib
“Tuydilar”.

Mushuk shoshmang,
Siz, dedi.
Qaytaramiz
Biz, dedi.

ARILAR

Biri boqar odamni,
Biri chaqar odamni.
Bir beradi asal,
Biri qiladi kasal.

Ikkisi ham aridir,
Bir-biridan naridir.
Biri ezgulik tomon,
Ikkinchisi notavon.

Biri doim ardoqda,
Ikkinchisi chatoq-da.
Yaxshidir yaxshi bo‘lmoq,
Yomondir chaqib olmoq.

28.05.2013 26

O'RDAK

O'rdak suvda
Suzadi,
Ba'zan uchib,
O'zadi.

Patlarini
Tozalab,
Yog'lar qanotin
Sozlab.

Suvda umbaloq
Oshar,
Ovqat istar,
U shoshar.

Suv qirg'og'in
Titadi,
Yemish topsa
Yutadi.

30.04.2013

G'OZLAR

G'ozlar g'oq-g'oq
Qiladi,
Har sharpani
Biladi.

Hovlimizda
Posbondir,
Jahli chiqsa
Yomondir.

30.04.2013

TOSHBAQA

Toshbaqa yurar
Sekin,
Bu tomosha xo‘p
Tekin.

Yelkasida
Toshi bor,
Yurolmaydi
Bemalol.

18.05.2013

KAPALAK

Kapalakjon,
Kapalak.
Seni quvib,
Men halak.

Endi tutay
Deganda,
Qo‘l uzatib
Kelganda.

Qanot qoqib
Qochasan.
Gul bag‘rini
Ochasan.

Kelgil, birga
O‘ynaylik.
Ahil bo‘lib
Yashaylik.

16.03.2013

BOLAJON

Bolaginam, bolajon,
Yuragimda hayajon.
Bugun seni qo‘riqlar
Pok niyatli har inson.

Bayram seniki bugun,
Har yaxshilik sen uchun.
Kelajaging porloqdir,
O‘ynayver bo‘lib mamnun.

Mustaqil diyoring bor,
Bunda qonun ustuvor.
Yurtboshing omon bo‘lsin,
Doim senga madadkor.

01.06.2013

TOLPOPUK

Tolpopuk taqib,
O‘zingga yoqib,
Shodlangin boqib,
Shovvadek oqib.

Tolda popuk bor,
Yordamchi, hamkor,
Sochingni uzun
Qilishga tayyor.



QIRDA

Qirga bordik,
Charchab toldik.
Yaylovlarda
Hordiq oldik.

Osmon toza,
Qildik mazza.
Dam olmoqlik
Qanday soz-a.

Bo'lsak sog'lom,
Bizga olam
Ostimizda
Go'zal gilam.

24.02.2013

HAVOJON

Hoy, havojon,
Bo'lsak nimjon,
Biz tomon bo'l,
Sen, biz tomon.

Havojonim,
Men tomonim,
Tanga mador,
Ham darmonim.

Bo'lay sog'lom,
Sog'lom, havom,
O'zing quvvat
Bo'lg'in mudom.

24.02.2013

KO'CHAT EK

Sen bahorda
Tur nahorda.
Tong saharda
Ko'chat ekkin.

Sevsang gulni
Ekkin uni.
G'animat dam,
Ko'chat ekkin.

Bog' bo'lsin desang,
Mevani sevsang,
Mazza qilib yesang,
Ko'chat ekkin.

25.02.2013

YANA KELDI

Yurtga keldi ko'klamoy,
Tarovatli, xushchiroy.
Osmonlari musaffo,
Erka varraklarga boy.

Bahor keldi bog'larga,
Obodon qishloqlarga.
Sayr etamiz, do'stlarim,
Shukr deb bu chog'larga.

24.03.2013

KUTDIK

Ko'klamni rosa kutdik,
Mana, bahorga yetdik.
Bizni qayda demangiz,
Gullar sayriga ketdik.

Mayin shabboda yeldi,
Dillar shodlikka to'ldi.
Sog'inganda kelguvchi,
Fasli navbahor bo'ldi.

SHOD YASHAYLIK

Shod yashaylik,
Qo'l tashlaylik.
Tinchlik – boylik,
Do'st bo'laylik.

Topib imkon,
Har bir inson.
Quchaylik shon,
Do'st bo'laylik.

Tilagim shu —
Ko'rmay qayg'u,
Yashab mangu
Do'st bo'laylik.



YOMON DO‘ST

Odam bo‘lish der qiyin,
Bo‘lmang aslo betayin.
Va’daboz odamlardan
Obro‘ ketar kun sayin.

Olim bo‘lish osonmish,
Odam bo‘lish qiyin ish.
Yaxshi insonlar bilan
Hal bo‘lar har qanday ish.

DO‘ST

O‘g‘il-qizlar,
Lola yuzlar,
Qora ko‘zlar,
Do‘st bo‘lamiz.

Goh chopamiz,
Dil ochamiz,
Gulg‘unchamiz,
Do‘st bo‘lamiz.

O‘qib a’lo,
Ilm ziyo,
Shu muddao,
Do‘st bo‘lamiz.



28.05.2013

YORDAM

Bersang yordam,
Bo'lib hamdam.
Inoqlikda
Hamma bardam.

Mehr ko'rsat,
O'tmay fursat,
Bo'larsan so'ng
O'zing xursand.

TIL O'RGAN

Tilni bilganlar,
Hurmatda turur.
Qalbida doim
Jo'sh urar g'urur.

Chet tilni o'rgan,
Bo'lib ko'p ko'rgan.
Bilimi oshar
Ko'p tilni bilgan.



ONA TILIM

Sen ona tilim,
O'zingda bilim.
Yaxshi ko'raman
O'zing taqdirim.

Sen bobom tili,
Sen momom tili.
Sehrli sandiq,
So'zlarning guli.

TOG'DA

Biz zerikib,
Toqqa chiqib,
Chin do'st bo'ldik
Sayr qilib.

Cho'qqi baland,
Oltin qanot,
Toqqa chiqqan
Topar sabot.



KO'KLAMOYIM

Ko'klamoyim,
Gulga boyim,
Keldingmi, ayt,
Sen guloyim.

Boychechagim,
Oy chechagim,
Gulga to'ldi,
Shu quchog'im.

ISHLAYMAN

Sut, qaymoqni
Xushlayman,
Shuning uchun
Ishlayman.

Sigirimni,
Boqaman
Yuvib, qashlab,
Yoqaman.

Evaziga
Bersa sut,
Charchog'im
Bo'lar unut.

XURSANDCHILIK

Qo'ziladi
Qo'yimiz,
Shavqqa to'ldi
Uyimiz.

O'sib ketib
Bo'yimiz,
Endi bo'lar
To'yimiz.

GILOS

— So'zlarim rost:
Pishdi gilos.
— Bilmabmiz-da,
Ana xolos.

— Bir iltimos,
Bering biroz.
— Tugadi-da.
— Ana xolos.

— Bo'lmang nokas.
— Qilmang havas.
— Kechirasiz.
— Ana xolos.



GUL OCHILDI

Hovlimizda
Gul ochildi,
Iforlari
Xo‘p sochildi.

Buvim shod va
Muloyimlar,
Gul terganda
Har doimlar.

Deydi qachon
Ochilsa gul,
Undan bahra
Olar ko‘ngil.

BARAKALLA

Uyimizga
Kelsa bobom,
Bizga doim
Bo‘lar bayram.

Qarab-qarab
Yo‘llariga,
Suv quyaman
Qo‘llariga.

Bobom deydi
“Barakalla”,
Oyim oshni
Suzgan palla.

ULGURAMAN

Kun chiqmasdan
Men turaman,
Hamma ishga
Ulguraman.

Darsxonamda
Dars qilaman,
So'ng qo'yimga
O't yulaman.

Keyin gulga
Suv quyaman,
Ish qilmoqni
Xo'p suyaman.

TARJIMON

Kelgusida
Zo'r tarjimon
Bo'lishni men
Xush ko'raman.

Chet tillarni
Shuning uchun
O'rganaman
Berib kuchim.

Til bilganlar
Yurt ko'radi,
Ko'p o'qigan
Ulguradi.

KATTA BO'LDIM

Kuni kecha
Tishim tushdi,
Tish doktorga
Ishim tushdi.

Ba'zi so'zni
Aytolmayman,
"R" harfiga
Qaytolmayman.

Nima qilay,
Katta bo'ldim,
Tishim tushib,
Aka bo'ldim.

DO'ST KO'P BO'LSA

Xo'p kattaman,
Albatta man,
Yaxshi bo'lish
Niyatdaman.

Do'st ko'p bo'lsa,
Ham xo'p bo'lsa,
Qani, olam
Do'stga to'lsa.



DO‘L YOG‘DI

Tapir-tupir
Do‘l yog‘di,
Ozginamas,
Mo‘l yog‘di.

Yerning beti
Muz bo‘ldi,
Muz parchaga
Yer to‘ldi.

Bizlar rosa
Quvnadik,
Eriguncha.
O‘ynadik.

KAMALAK

Ko‘kda chiqdi
Kamalak,
Bo‘y berganda
Handalak.

Turli ranglar
Bog‘landi,
Osmon yuzi
Dog‘landi.

Rassom ekan
Quyoshjon,
Bo‘yoqlari
Bir jahon.

SUVNI SAQLA

Suvga qarab
Tufurmagin,
Suvga qarab
Supurmagin.

Suvlarimiz
Toza oqsin,
Tozaligi
Dilga yoqsin.

Bu dunyoda
Suvdir hayot,
Barcha uchun
Kuch va qudrat.

NON

Tandirga o't
Yoqar onam,
Shirmon nonlar
Yopar onam.

Mazza, mazza,
Bizga mazza,
Ba'zan oyim
Qo'shar jizza.

Go'sht qo'shilsa
Go'shtnon bo'lar,
Tanimizga
Darmon bo'lar.

TUT PISHDI

Bodiroq tut
Rosa pishdi,
Tagiga ham
To‘p-to‘p tushdi.

Bolalar
Chopib kelib,
Yeyishdi
Terib-terib.

Maza qildi
Bolalar,
Yuzi qizil
Lolalar.

BIZNING BOG‘DA

Gilosimiz
Qizardi,
Xursand qildi
Bizlarni.

Qushlar cho‘qib
Qochishdi,
Yerga rosa
Sochishdi.

Akam “qo‘riqchi”
Osdi,
Qushlar qochishdi,
Rosti.

HURMAT KO'RSAT

Keksalarga
Hurmat ko'rsat,
Avtobusda
Joying bo'shat.

Shunday qilgil
Sen doimo,
Duo qilsin
Bobo, momo.

BIR O'YLAB KO'RING

Urush degani
Qonli urushdir,
Inson zotini
So'zsiz qirishdir.
Bizning ishimiz
O'ylab ko'rishdir.

Ne uchun urush,
Nechun yondirish,
Ne uchun kerak
Odam o'ldirish.
Bizning ishimiz
O'ylab ko'rishdir.

Qo'shiq kuylaylik,
Zavq-la o'ynaylik.
"Urush-urush"ni
Hech o'ynamaylik.
Bizning ishimiz
O'ylab ko'rishdir.

06.05.2013

XOTIRA KUNIDA

Men bobomni
Tabrikladim
Xotiradek
Kun bilan.

Bobom quchib,
Xo'p quvondi
Qo'lda dasta
Gul bilan.

Bobom botir
Jangchi bo'lgan,
Yurt tinchligin
Saqlagan.

Er yigitdek
O'z nomusin
Oriyatin
Oqlagan.

Mana bugun
Mustaqil el
Osmonimiz
Musaffo.

Tinchlik uchun
Kurashganlar
E'zozdadir
Doimo.



06.05.2013

BOBOJONIM

**Bobojonim,
Omon bo‘ling,
Doimo biz
Tomon bo‘ling.**

**Uzoq yashang,
Yuzga kiring,
Oy, quyoshdek
Porlab turing.**

**Hassangizni
Olib beray,
Joyingizni
Solib beray.**

**Umringizga
Umr tilay,
Doim sizga
Xizmat qilay.**

**Faqat ko‘proq
Ayting ertak,
Yangisidan
Bo‘lsa kerak.**

06.05.2013

YAXSHI NIYAT

Salom bersa
Alik olgin,
Adashganni
Yo'lga solgin.
Yurgan odam
Bo'lar horg'in,
Yomonga ham
Yaxshilik qil.
Yaxshi ishga
Yelib, yugur,
Adolatga
Sen xolis tur.
Yashar bo'lsang
Hurram yasha,
Pok-pokiza
Qadam boshla.
Yomon fe'ling
Darrov tashla,
Qadamingdan
O't chaqnasin.
Inson insonni
Saqlasin.
Pok nomingni
Til oqlasin.
Yaxshi-yaxshi,
Niyat yaxshi,
Yaxshiliklar
Umr naqshi.
Dedi senga
Ikrom baxshi.

QOR YOG‘DI

Qor yog‘di qir, dalaga,
Yoqib qizu bolaga,
Chana tortib o‘ynashar
Rahmat deb shu pallaga.

Qor kurab yo‘l ochishar,
Qor otgandan qochishar,
Bolalar boshlaridan
Muzdek parlar sochishar.

Qor, qor deydi qarg‘alar,
Qancha yog‘sa shodlanar,
Bu yil hosil mo‘l bo‘lar
Qorga to‘lsa dalalar.

24.05.2013

LOLA

Qizil ko‘ylak
Kiygan lola,
Sharbat to‘la
Zarpiyola.

Tog‘dan tushgan
Sho‘x shalola,
Intizori
Qiru dala.

Ismi olov,
Jismi olov,
Ko‘rinadi menga
Lov-lov.

30.05.2013

YOQUT PIYOLA

Qizil lola,
Qip-qizil lolam,
Nur sochguvchi
Olovli sanam.

Yuz qizarib
Uzatadi suv,
Ko'zlarimdan
Qochadi uyqu.

Lolaginam,
Ne bo'ldi senga,
Gaping yo'qmi,
Aytaqol menga.

Nechun yuzing
Qizardi birdan,
Yo shoshilib
Tushdingmi qirdan.

Quchoq ochdim,
Kelaqol, lolam,
O'zing mening
Yoqut piyolam.

30.04.2013



POK VA HALOL

Boylikin der
Qo'lning kiri,
Har narsaning
Bor oxiri.

Birov shoshar,
Birov chopar,
Ba'zan biri
Birin qopar.

Noming bo'lsa,
Yaxshi inson,
Yashaysan sen
Shunda shodon.

Nasihatga
Sen quloq sol,
Yomonlardan
O'zingni ol.

28.05.2013

BULUT

Bulut chopar osmonda,
Shamol esar har yonda,
Bulutdan yomg'ir yog'ar,
Shovullab biz tomonda.

Yomg'ir tilar ko'pchilik.
Yomg'ir yerga mo'lichilik,
Hosillar mo'l bo'lganda,
Har yurtida mo'l-ko'lichilik.

19.04.2013

BULOQ

Buloq chiqar
Ko'zin ochib,
Chor tarafga
Tomchi sochib.

Jilg'a bo'lar,
Bo'lar anhor,
To'planishar
Kelsa bahor.

Qaynayverar,
Toshaverar,
Dengizlarga
Shoshaverar.

Ahil ular,
Inoq ular,
Dengiz bo'lar,
Bu buloqlar.

30.04.2013

YAXSHI DO'ST

Osmon uzoq,
Qattiqdir yer,
Do'sting bilan
Ko'kraging ker.

Yaxshi-yomon
Gapni dema,
Do'sting bo'lsa
Sen g'am yema.

Yaxshi do'stni
Topish qiyin,
Afsus qilib
Yurma keyin.

Do'st topishda
Sen adashma,
Vafo tomon
Qadam tashla.

FAZOLARDA

Fazolarga
Uchay deyman,
Yangi dunyo
Ochay deyman.

Yulduzlarga
Borib kelsam,
Yerga salom
Olib kelsam.

Fazolarda
Qursam bekat,
Do'stlar uchun
Qavat-qavat.

Nomi bo'lsa
"O'zbekiston",
Qoyil qolsa
Jumla jahon.

OYDA

“O‘ziga bek”
Kosmik kema
Borib oyda
Paxta eksa,
Tadbirkorlar
Olsa foyda.

Yoshlarimiz
Navbat kutsa
Oy tomonga,
Oy yuzi ham
Aylanardi
Bir chamanga.

Fazolardan
Bizlar tomon
Salom kelsa,
Sog‘lom turmush
Binolarin
Qurgin desa.

Bizning yoshlar
Zabt etsalar
Samolarni,
Shod etardi
Ruhin o‘tgan
Bobolarni.



29.04.2013

YAXSHI BO‘L

Shirin so‘zla,
Tinchlik ko‘zla,
Har tarafdin
Do‘stni izla.

Shirin so‘z bil,
Shodlik nuqul,
Har bir ishda
Xolis turgil.

Sen yaxshi bo‘l,
Shodlikka to‘l.
Shunda baxtga
Ochilar yo‘l.

19.04.2013

SEN BOR QUYOSH

Otash quyosh,
Hayotga bosh,
Barchamizga
Saxiy yo‘ldosh.

Botmasin u,
Yotmasin u,
Bizni tashlab
Ketmasin u.

18.04.2013



SUV

Suvdir ulug',
Unga qulluq.
Suv-la tirik
Har bitta jon.

Suv – bu hayot,
Dunyo obod.
Suv bilandir
Cho'llar bo'ston.

Obodlikdir,
Ham shodlikdir,
Dili ravshan
Har bir mehmon.

Qo'lga suv quy,
Cho'lga suv qo'y,
Obod bo'lsin
O'zbekiston.

19.04.2013

KEL, SHABBODA

Shabboda g'ir-g'ir,
Har ishga qodir,
Saharlab turar,
Esib ulgirar.

Havolar toza,
Bizlarga mazza,
Do'stlarim buncha,
Yoqimli yoz-a.

OLIM

Quyosh chiqib
Ulgurdi,
Asta-sekin
Qizdirdi.

Olim shoshmay
Uyg'ondi,
Bet yuvishga
Qizg'ondi.

Nonushtaga
O'tirdi,
Qaymoqqa non
Botirdi.

Qaymoq yuzga
Chaplandi,
Qarang, qanday
Boplandi.

18.05.2013

ALLA

Singlim qo'g'irchoq
O'ynar,
Shu bilan u
Quvonar.

Alla aytar
Ko'z suzib,
Uxlagin der
Yotqizib.

Ustiga yopib
Ro'mol,
Deydi endi
Orom ol.

Ishlarimni
Bitiray,
So'ng dam olib
O'tiray.

Alla, bolam,
Alla-o,
Uyqung kelgan
Palla-o.

Singlim ko'zi
Suzilib,
Uxlab qoldi-ku
Kulib.

18.05.2013

KELING, SHAXMAT O'YNAYMIZ

Keling, shaxmat o'ynaymiz,
Siz bo'lasiz, mayli, fil.
Men-chi, men ot bo'laman,
– To'xta, biroz sabr qil.

– Fil-chi, kuchli hammadan,
So'ra amma, xoladan.
– Fil qo'rqadi sichqondan.
Bilarmisan, ukajon.

15.03.2013

QO'LGA QO'L

Qo'lga qo'l
Qo'lin cho'zsa,
Boshqalardan
Tez o'ssa.

Shu do'stlikka
Nishona,
Sinaganda
Zamona.

Bu do'stlik
Qo'l tufayli,
Pokiza dil
Tufayli.

17.05.2013

TO'P TOSH

Lola to'ptosh o'ynaydi,
Bir olishu bir olish.
To'p tosh o'ynab yayraydi,
Kerakmas ortda qolish.

To'plab olar beshtasin,
Ololmagan yutqazsin.
Barmoqlar orasidan
Endi toshni o'tkazsin.

18.05.2013



SABR QILSA

Gʻoʻradan holva
Boʻlar
Sabr qilsa.

Bir urugʻdan
Gul unar
Sabr qilsa.

Goʻdak ham
Katta boʻlar
Sabr qilsa.

Piyoda, otda
Boʻlar
Sabr qilsa.

Oqqan soy
Suvga toʻlar
Sabr qilsa.

Toʻplanib
Ummon boʻlar
Sabr qilsa.

Sabrning
Tagi oltin
Sabr qilsa.

Hayoti boʻlar
Yorqin
Sabr qilsa.

18.05.2013

TEGIRMON

Tegirmon un
Tortadi,
Un hammaga
Yetadi.

Tegirmon
Pahlavondir,
Doim bizlar
Tomondir.

Chorvaga yem
Kepakni,
Ajrata
Elagi.

Elu yurtga
Xizmati,
Bilinmaydi
Minnati.

SUPURGI

Supurgi yer supurar,
Supurib toza qilar.
Changyutgich bo'lmasa ham
Qilar ishini bilar.

Hovli joylar ozoda,
Havas qilgudek juda.
Supurgingni ehtiyot
Qilgin doim, Mavjuda.

19.05.2013

HASAN-HUSAN

Hasan-Husan,
Egizaklar,
Bir ko'rinish,
Bir bezaklar.

Bilmaganlar
Ajratolmas,
Kimki ko'rsa
Qilar havas.

Shuning-chun der
Hasan-Husan,
Hasanboying
Qaysiningsan.

Budir Hasan,
Mendir Husan,
So'ray bermang
Husan kimsan.

18.05.2013

YOSHLIK

Hamma sizdek yosh bo'lgan,
Qalbi o't, quyosh bo'lgan.
Sakrab-sakrab o'ynagan,
Ehtimol, bebosh bo'lgan.

Tashvish nima bilmagan,
Davri bo'lgan, gullagan.
Keksalik kelganida
Kim sog'inib, bilmagan.

18.05.2013

DUNYODA NIMA SHIRIN

Aytib bering, do'stlarim,
Dunyoda nima shirin?
Bobom boshimni silab
Aytar, nima yashirin?

Qo'limda-chi nima bor,
Nima menda yashirin.
Umi to'p deydi ukam,
Buvim aytar jon shirin.

Men aytaman, tugmacha,
Qalbingdagi yurakcha.
Ukam dedi totlidir
Kuchuklarga suyakcha.

Akam dedi u novvot,
Endi singlimga navbat.
Zuhro biroz o'ylanib
Umi, dedi: shokolad.

15.05.2013

ENG KATTAMAN

Ukam stulga chiqib,
Dedi men eng kattaman.
Siz-chi, siz yerda turing,
Men-chi, endi otdaman.

Keling, uchish o'ynaymiz,
Men samolyot osmonda.
Xayolda parvoz qilish
Biling, juda oson-da.

15.03.2013

QUYOSH

Yorug' yulduz,
Biz tirikmiz
Sen bor uchun
Kecha-kunduz.

Oy sochar nur,
Ochilar gul,
Nurli yo'lga
Qarash huzur.

Yer, suv, havo,
Sen tufayli.
Ota quyosh,
Nuring xayrli.

17.05.2013

BAHOR TASHVISHI

Qaldirg' ochlar charx urib uchar,
Bodom, o'rik gullarin to'kar.
Dehqon urug' qadaydi yerga,
Dam g'animat, bir zumda o'tar.

Bahorda bir kunga kechikkan,
Kuzda oyga qo'yar yutqazib.
Shuning uchun g'ayrat qil, bolam,
Vaqtini qo'yma bekor o'tkazib.

22.03.2013

YANA KELDI NAVBAHOR

Bahor-la shodlik keldi,
Yurtga obodlik keldi.
Gul isi totlik keldi,
Yana keldi gulbahor.

Kel, bahorim, xush ko'rdik,
Biram sayroq qush ko'rdik.
Maysalarda nish ko'rdik,
Yana keldi, gulbahor.

Yashaymiz emin-erkin,
Kelaversin yangi kun.
Qolmasin dilda tugun,
Yana keldi gulbahor.

21.03.2013



ONAM

Mening onam
Go‘zal sanam.
Odoblimiz,
Chekmaydi g‘am.

Alla aytar,
Xo‘p yayratar.
Til o‘rgatar,
Mening onam.

Onam – borim,
Iftixorim.
Madadkorim,
Mening onam.

18.03.2013



NAVRO'ZIM

Salom, Navro'zim,
Senga dil so'zim.
Samimiy orzu –
Navro'zga ta'zim.

Xush kelding, bahor,
Senda shodlik bor.
Qishki chechaklar
Intizor kutar.

Musaffo osmon,
Varraklar har yon.
Ko'm-ko'k bog'lari
Gullagan chaman.

Salom, Navro'zim,
Yashnatgan ko'zim.
Kechayu kunduz
Zor kutdim o'zim.

22.05.2013



MENING OTAM

Mening otam,
Polvon, ko'rkam.
G'am chekmaydi,
Zo'r chinakam.

Misli olim,
U imonim.
Qachon bo'lsa
Men tomonim.

Kelsa ishdan
Yo tashvishdan.
"Uf" tortmaydi
Hech yumushdan.

Uchib boray,
Quchib olay.
Men ham shunday
Inson bo'lay.

18.03.2013



MUNDARIJA

Tinchlik bo'lsin	4
Mehmon-mezbon	5
Yolg'on yomon	6
Ogoh yasha.....	7
Vatan	8
Dehqon	9
Ona qishlog'im.....	9
Ota-onang	10
Maktabim	11
Farovon turmush	11
Bobom	12
Obodlik	13
Men va oyna.....	13
Sportchimiz, sog'lom avlodmiz	14
Oymomo	19
Olma oqdi.....	19
Bobo bilan nabira	20
Olma o'g'rilari	22
Chiniqish	23
Olaqanot.....	24
Quyon.....	24
Turnalar	25
Tipratikon.....	25
Laylak	26
Tovuq	26
Xakkalar	27
Arilar	27
O'rdak	28
G'ozlar	28
Toshbaqa	29
Kapalak	29
Bolajon	30
Tolpopuk	30
Qirda	31
Havojon.....	31
Ko'chat ek	32

Yana keldi	32
Kutdik.....	33
Shod yashaylik	33
Yomon do'st.....	34
Do'st.....	34
Yordam	35
Til o'rgan.....	35
Ona tilim	36
Tog'da	36
Ko'klam oyim	37
Ishlayman	37
Xursandchilik	38
Gilos.....	38
Gul ochildi.....	39
"Barakalla".....	39
Ulguraman.....	40
Tarjimon.....	40
Katta bo'ldim.....	41
Do'st ko'p bo'lsa.....	41
Do'l yog'di.....	42
Kamalak	42
Suvni saqla	43
Non.....	43
Tut pishdi	44
Bizning bog'da.....	44
Hurmat ko'rsat	45
Bir o'ylab ko'ring.....	45
Xotira kunida.....	46
Bobojonim.....	47
Yaxshi niyat	48
Qor yog'di.....	49
Lola	49
Yoqut piyola.....	50
Pok va halol.....	51
Bulut.....	51
Buloq.....	52
Yaxshi do'st	52
Fazolarda.....	53

Oyda	54
Yaxshi bo'l	55
Sen bor quyosh	55
Suv	56
Kel, shabboda	56
Olim	57
Alla	57
Keling, shaxmat	58
Qo'lga qo'l	59
To'p tosh	59
Sabr qilsa	60
Tegirmon	61
Supurgi	61
Hasan-Husan	62
Yoshlik	62
Dunyoda nima shirin	63
Eng kattaman	63
Quyosh	64
Bahor tashvishi	64
Yana keldi navbahor	65
Onam	66
Navro'zim	67
Mening otam	68

4500 cizil.

Adabiy-badiiy nashr

IKROMJON ORZIQULOV

BOBO BILAN NABIRA

(she'rlar)

Muharrir: Luqmon Bo'rixon
Texnik muharrir: Fayzullo Azizov
Musahhih: Nodira Egamqulova

«Muharrir» nashriyoti
Litsenziya: AI № 230. 2012 yil 16 noyabr

Terishga 2013 yil 11 sentyabrda berildi.
Bosishga 2013 yil 08 oktyabrda ruxsat etildi.
Bichimi: 84x108 $1/32$. «Virtec Times Uz»
garniturasida ofset bosma usulida ofset qog'ozida
bosildi. 2,25 shart. b.t. 28 hisob nashr. tab.
Adadi 400 nusxa. 139-son buyurtma.

«Muharrir» nashriyoti matbaa bo'limida chop etildi.
100060, Toshkent shahri, Elbek ko'chasi, 8-uy
E-mail: muharrir@list.ru